

LIVAN DAVLATINING FRANSIYA MUSTAMLAKACHILIGIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI (1919-1943)

Alimxodjayeva Go'zal Baxodirovna

Toshkent Davlat Sharqshunoslik

Universiteti 1-kurs magistranti

guzalalimxadjaeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1919-1943-yillarda Fransiya mustamlakachiligiga qarshi Livan xalqining milliy ozodlik harakati ko'rib chiqiladi. Livan davlati geografik, tarixiy va siyosiy aloqalari tufayli ko'pincha Suriya birga o'rganiladi. Ikkala davlat ham Buyuk Suriya (Shom) tarixiy hududining bir qismidir. Asrlar davomida ular Usmonli imperiyasining bir qismi bo'lgan. Birinchi jahon urushidan keyin ikkala davlat ham Fransiya mandati ostiga o'tdi. Mamlakatlar umumiy chegaraga ega, bu esa yaqin iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarga yordam bergan. Livan va Suriyaning Fransiya mustamlakachiligiga qarshi kurashi o'zaro bog'liq va umumiy maqsadlarga ega bo'lganligi sababli maqolada ikki davlatning milliy-ozodlik harakatlari birga tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada 1925-yilgi qo'zg'olon va uning milliy harakat rivojidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada 1930-yillardagi siyosiy kurash ko'rib chiqilib, siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va kurashning parlamentar usullariga o'tishi tadqiq etilgan. Ikkinchi jahon urushi davri va Bishara al-Xuriy kabi yetakchilarning roli, shuningdek, 1943-yilda Livan mustaqilligidagi Milliy paktning tashkil topishi batafsil yoritib berilgan. Milliy ozodlik harakati muvaffaqiyatiga hissa qo'shgan omillar va uning zamonaviy Livan jamiyati uchun qoldirgan merosi ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buyuk Livan, Milliy-ozodlik harakati, fransuz mustamlakachiligi, mandat tizimi, Bishara al-Xuri, Milliy pakt.

Abstract: This article examines the Lebanese national liberation movement against French colonial rule from 1919 to 1943. Due to its geographical, historical, and political connections, Lebanon is often studied together with Syria. Both countries constitute parts of the historical region of Greater Syria (al-Sham) and for centuries were under Ottoman rule. Following the First World War, both territories came under the French Mandate. The two countries share a common border, which facilitated close economic and social ties. Since the struggles of Lebanon and Syria against French colonialism were interconnected and pursued common objectives, the article analyzes their national liberation movements in a comparative and integrated manner. Special attention is given to the 1925 uprising and its significance in the development of the national movement. The article also explores the political struggle of the 1930s, focusing on the emergence of political parties and the transition of the movement

toward parliamentary methods of resistance. Furthermore, it provides a detailed account of the Second World War period, the role of leaders such as Bishara al-Khuri, and the formation of the National Pact that led to Lebanon's independence in 1943. The factors contributing to the success of the national liberation movement and its legacy for contemporary Lebanese society are also analyzed.

Keywords: Greater Lebanon, national liberation movement, French colonialism, mandate system, Bishara al-Khuri, National Pact.

Birinchi jahon urushi tugashi bilan Livanda ahvol yomonlashdi. 1920- yilda Fransiya San-Remo konferensiyasida Livan va Suriyani boshqarish mandatini oldi. Bu mandat Suriya va Livan xalqlarining xohish-irodasi va istaklariga zid ravishda 1922-yil 24-iyulda Millatlar Ligasi tomonidan tasdiqlandi. Fransuz imperialistlari Livanni Yaqin va O'rta Sharqdagi o'z mustamlakasidek ko'rdilar. 25 yildan ortiq vaqt davomida fransuz monopoliyalari Livan xalqini talon-taroj qilib, mamlakatda mustamlakachilik tartibini o'rnatdilar.¹ Mazkur konferensiya g'arb davlatlari, ayniqsa ittifoqchilarni xavotirga soldi va ular tezkor javob choralari ko'rishdi. Natijada, San-Remo shartnomasini tuzish bo'yicha qaror qabul qilindi. Unga ko'ra:

1. Usmonli imperiyasining parchalangan hududlarini bo'lish: Sevr shartnomasi asosida Osiyoda joylashgan arab davlatlari va Shimoliy Afrikadagi mintaqalarni mandat tizimiga topshirish;

2. Tinchlik shartnomasi: 1920-yil 10-avgustda Turkiya bilan Sevr shartnomasi imzolandi;

3. Armaniston va Kurdistonning mustaqilligi: Ushbu hududlarning mustaqilligi tamoyili qo'llab-quvvatlandi;

4. Gretsiya manfaatlari: Gretsiya Frakiyaning ba'zi hududlariga va Anadoluning g'arbiy qirg'oqlariga egalik qildi;

5. Mandat tizimi: Suriya va Livan Fransiya mandati ostiga berildi. Falastin va Iroq esa Buyuk Britaniya nazoratiga o'tkazildi;

6. Balfour va'dasi: Falastinda yahudiylar uchun milliy uy barpo etish g'oyasi tasdiqlandi;

7. Turkiya va xalqaro chegaralar: Turkiya arab davlatlariga oid da'volaridan voz kechishga majbur bo'ldi.²

1920-yil 1-sentabrda fransuz generali Guro Bayrutdagi as-Snobar saroyida Suriyada yangi davlat – “Buyuk Livan davlati” tashkil etilganini e'lon qildi. Bu davlat tarkibiga quyidagilar kiritildi. Ular Tog'li Livan gubernatorligi, Bayrut shahri, Tripoli shahri (uning ma'muriy bo'ysunuvida Akkar, Safita va al-Xosn), Sayda, Sur va Marj-

¹ Ватолиной Л. Арабы в борьбе за независимость. Академия наук СССР Институт Востоковедения. Москва, 2020. - С. 277.

² University of Anbar. ريمو سان مؤتمر سائر ريمو مؤتمر. هي. في عقدت اتفاقية. ريمو سان مدينة. عشر التاسع في الإيطالية. نسيان من.

Uyun (Jabal-Amal viloyati) shaharlari va Hasbaya, Rashaya, Biqa' va Baalbek qoziliklari. Fransiya "Buyuk Livan"ni tashkil etib, mamlakat hududini Livan manfaatlari uchun emas, balki o'z manfaatlarini ko'zlab kengaytirdi. Livanliklarning mutlaq ko'pchiligi bu loyihaga qarshi edi. Suriyaning ichki hududlarida, ayniqsa aholining aksariyatini tashkil etgan arab-musulmonlar orasida kuchli qarshilik mavjud edi. Fransuzlar bir kun kelib Suriyadan chiqib ketishga majbur bo'lishlarini tushunib, Livanga e'tibor qaratdilar. Ular "Buyuk Livan" davlatini tuzib, maroniylarga tayanish orqali livanliklarning hech qachon ularga qarshi chiqmasligiga ishonch hosil qilishni maqsad qildilar.³

Fransuzlarga qarshi qo'zg'olonlarning statistikasi quyidagicha: 1922-yilda 35 marta qo'zg'olon ko'tarilgan; Fransiya armiyasi 1924-yilga kelib 9 minggacha askar va zobitini yo'qotgan. Ushbu qozg'olonlar Suriya va Livan xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashining keng ko'lamini aks ettiradi. Suriya va Livanning ozodlik harakati milliy birlik, iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suverenitet uchun kurashning yorqin namunasi bo'lib, bu jarayon mintaqaning boshqa hududlariga ham ta'sir ko'rsatdi.⁴

Ushbu qo'zg'olonlar natijasida Suriya va Livan qurolli kurash yo'li bilan fransuz hukmronligidan ozod bo'lishga urindilar, biroq muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Qo'zg'olonda dehqonlar, hunarmandlar, ishchilar, savdogarlar va hatto ayrim feodallar ishtirok etdi. Biroq qo'zg'olonning muvaffaqiyatsizligi fransuzlarning Suriya va Livan aholisining turli guruhlarini o'rtasidagi etnik va diniy tarqoqlikdan foydalanganligi, harbiy-texnik ustunligi va siyosiy manyovrlari bilan izohlanadi. Bundan tashqari, 1926-yil may oyida Livan mustaqilligini rasman tan olish ham qo'zg'olonning sustlashishiga olib keldi.

Qo'zg'olon yetakchilari, ayniqsa Jabal ad-Druzda, ko'pincha faqat cheklangan mahalliy maqsadlarga erishishga intilib, qo'zg'olon umumiy milliy xarakterga ega bo'lganda undan chekinishni afzal ko'rdilar. Shahar savdogarlari ham mandat hokimiyatidan muayyan yon berishlarni kutib, oxir-oqibat fransuzlar bilan kelishib olishga intildilar. Natijada, Suriya elitasining ayrim guruhlarini mandat ma'murlari bilan aloqa o'rnatib, ularni qo'llab-quvvatladilar. 1926-yil oxirida Suriya ishbilarmonlari fransuz sarmoyasi bilan iqtisodiy hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishdilar, bu esa fransuzparast kayfiyatning kuchayishiga olib keldi. 1925–1927-yillardagi milliy-ozodlik harakati Suriya va Livan tarixida muhim o'rin tutadi.⁵

³ Амин Саид. Восстания арабов в XX веке. Прогресс. Москва, 1964. -С.153.

⁴ Бершов В. Н. Сирийское восстание 1925-1927 годов на подмандатных территориях (Сирия и Ливан): причины, ход и последствия // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Исторические науки. – 2019. – Т. 5. – №. 1. – С. 44.

⁵ Бершов В.Н. Сирийское восстание 1925-1927 годов на подмандатных территориях (Сирия и Ливан): причины, ход и последствия // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Исторические науки. – 2019. – Т. 5. – №. 1. – С. 53.

1926-yilda Fransiya mandati davrida Livan Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yaqin Sharqdagi ko'plab davlatlar protektorat ostida konstitutsiyalarni qabul qilgan. Masalan, 1923-yilda Misr Konstitutsiyasi, 1924-yilda Iroq Konstitutsiyasi, 1928-yilda Transiordaniya Konstitutsiyasi, 1930-yilda Suriya Konstitutsiyasi va 1939-yilda Quvayt Konstitutsiyasi qabul qilingan. Shunga qaramay, hozirgacha faqat Livanning 1926-yildagi Konstitutsiyasi amal qilib kelmoqda. Ushbu hujjat mamlakat 1943-yilda mustaqillikka erishganidan keyin ham bekor qilinmagan.

Livan aholisi konfessional jihatdan rang-barang bo'lib, nasroniylar va musulmonlar orasida turli yo'nalishlar mavjud. Nasroniy aholiga maroniylar, armano-grigorianlar, armano-katoliklar, pravoslavlar, melkitlar, yakovitlar, rim-katoliklar, yunon-katoliklar, koptlar va protestantlar kiradi. Ularning soni ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, umumiy aholining 39 foizini tashkil etadi. Musulmonlar esa aholining 59,7 foizini tashkil etib, ular orasida sunniylar, o'n ikkilik shialar, alaviylar, druzlar, ismoiliylar va boshqa guruhlar mavjud. Ba'zi musulmon yo'nalishlarining aniq sonini belgilash qiyin, chunki diniy e'tiqodni yashirish (taqiya) amaliyoti keng tarqalgan. Qolgan 1,3 foiz aholi boshqa dinlarga, shu jumladan yahudiylikka e'tiqod qiladi.⁶

Livan Konstitutsiyaning 1-moddasida Livan chegaralari "Fransiya Respublikasi hukumati tomonidan rasman tan olingan", deb belgilandi va bu chegaralar doirasida "to'liq suverenitet" e'lon qilindi. Arab tili yagona rasmiy davlat tili deb e'lon qilindi va fransuz tili ikkinchi darajali maqomini oldi. Bundan buyon barcha xalqaro shartnomalar Fransiya hukumati tomonidan emas, balki Livan Prezidenti tomonidan tuzilishi va Livan parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak edi. Millatlar Ligasi tomonidan Fransiya berilgan barcha vakolat va imtiyozlar konstitutsiyadan rasman olib tashlandi. Nihoyat, deputatlar davlat bayrog'ining 5-moddasini o'zgartirish uchun ovoz berishdi: fransuz trikori oq fonda sadr daraxti tasvirlangan uchta gorizontall chiziq – qizil, oq, qizil chiziq bilan almashtirildi. Huquqiy va ramziy jihatdan Livan o'z suverenitetini tasdiqladi.⁷

Livan Konstitutsiyasi 1926-yil 23-mayda qabul qilinganidan so'ng, bir necha marta o'zgartirilgan. O'zgartirishlar 1927, 1929, 1943, 1947, 1948, 1976-yillarda, shuningdek, 1990-yilda Taif bitimidan so'ng amalga oshirilgan. Taif bitimi "Milliy yarashuv kelishuvi", deb ham ataladi va fuqarolar urushini yakunlashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Livan Konstitutsiyasi hozirgi kunda quyidagi oltita qism va jami 102 moddadan iborat:

1. Asosiy qoidalar;
2. Vakolatlar;

⁶ Хайруллин Т.Р. Конституция Ливана как гарант хрупкой стабильности политического режима //Ислам в современном мире. – 2018. – Т. 13. – №. 4. – С. 114.

⁷ Роган Ю.Арабы. XVI-XXI вв./М.:2022. Альпина. -С. 334.

3. Prezident saylovi va Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tartibi;
4. Turli xil qoidalar;
5. Majburiy hokimiyat va Millatlar Ligasi bilan bog'liq qoidalar;
6. Yakuniy va vaqtinchalik qoidalar.⁸

Livandagi siyosiy partiyalar boshqa arab mamlakatlariga nisbatan kechroq shakllandi va asosan mamlakatdagi konfessional tizim bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Livandagi barcha siyosiy partiyalar va diniy jamoalarning pozitsiyasiga 1932-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalari sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Unga ko'ra, mamlakat aholisining 50 foizini nasroniylar, 48,8 foizini musulmonlar va 1,2 foizini boshqa guruhlar tashkil etgan. Nasroniylar orasida maroniylar (28,8%), pravoslavlar (9,7%), grek-katoliklar (5,9%), armani-grigorianlar (3,2%), armani-katoliklar (0,7%), protestantlar (0,9%), yakovitlar (0,3%), suriya-katoliklar (0,3%), xaldeylar (0,1%) va nestorianlar (1,1% dan kam) yetakchilik qilgan. Musulmonlar orasida esa sunniylar (22,4%), shialar (19,6%) va druzlar (6,8%) asosiy guruhlar edi.

Shu bilan birga, ba'zi kichik konfessiyalar (masalan, Livan shimolida yashagan alaviylar va boshqa juda oz sonli guruhlar) statistik ma'lumotlarda aks ettirilmagan. 1913-yilgi aholini ro'yxatga olish bilan taqqoslaganda, maroniylar va umuman nasroniylarning ulushi kamayib borayotgan tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlangan.⁹

“Baas”* Mishel Aflaq va Saloh ad-Din Bitar tomonidan 1940-yillar boshida “Yagona arab xalqi, abadiy xabarni yetkazuvchi” shiori ostida panarabizm va antiimperializm g'oyalarini targ'ib qiluvchi dunyoviy partiya sifatida tashkil etilgan. “Baas” alohida davlatlar ichidagi tor millatchilikdan voz kechib, barcha arab xalqlarini birlashtiruvchi millatchilik tarafdori edi. “Baas” mafkurachilari arablar tashqi ta'sirlardan to'liq mustaqillikka, shuningdek, mamlakatda ijtimoiy adolatga faqat to'liq birlikka erishish orqali erisha oladilar, deb ta'kidladilar. Ular 1919-yilgi Versal shartnomasi bilan o'rnatilgan imperialistik chegaralardan xoli yagona arab davlatining utopik tasavvurini taklif qildilar. 1940-yillarning oxirida Livan, Iordaniya va Iroqda “Baas” filiallari paydo bo'ldi.¹⁰

Birinchi saylovlar 1943-yil 29-avgustda o'tkazildi. Bu saylovlarda birinchi marta milliy arab tashkilotlari ishtirok etdilar, ular Fransiya hukmronligi davrida odatda saylovlarni boykot qilishgan edi. Mamlakatning shimoliy qismidagi saylov kurashiga Livan bosh vaziri Hamid Karame boshchilik qildi. Saylovlar paytida uning ro'yxati ajoyib g'alaba qozondi. Boshqa viloyatlarda ham milliy ro'yxatlar g'olib

⁸ <https://www.fao.org/faolex/results/details/en/c/LEX-FAOC128652/>

⁹ Ланда Р. Г. История Ливана. XX век / Институт востоковедения РАН/. - М.: ИВ РАН, 2016.

*“Baas” partiyasi -1947-yilda suriyalik mutafakkir Mishel Aflaq (1910-1989) tashabbusi bilan arab sotsializm g'oyalarini rivojlantirish va tarqatish uchun tashkil etilgan.

¹⁰ Поган Ю. Арабы. XVI-XXI вв./М.:2022. Альпина. -С. 394.

*Bishara al-Xuriy (1892-1964) — Livanlik siyosatchi va davlat prezidenti.

*Riyod as-Solih (1894 - 1951) — Livan mustaqillikka erishgandan keyin birinchi Bosh vazir bo'lgan.

chiqdi. Respublika prezidenti nomzodi masalasi bo'yicha kurash boshlandi, chunki yangi parlament prezidentni saylashi kerak edi. Fransuzlar o'z do'stlari Emil Edde nomzodini taklif qildilar, arab millatchilari esa sobiq hukumatlardan birining bosh vaziri, Konstitutsiyaviy partiya rahbari Bishara al-Xuriy* nomzodini ilgari surdilar. Inglizlarning nomzodi Kamil Shamun edi.

Parlament 1943-yil 21-sentyabrda to'plandi. Ko'pchilik ovoz bilan shayx Bishara al-Xuriy respublika prezidenti etib saylandi: u 52 ovozdan 39 tasini oldi. Uning saylanishi Livandagi arab millatchiligi uchun katta g'alaba, Fransiya va uning tarafdorlari hamda agentlari uchun esa jiddiy mag'lubiyat sifatida baholandi.

25-sentyabrda Riyod as-Solihning* birinchi kabineti tuzildi. 7-oktyabr kuni as-Solih parlamentga keng bayonot taqdim etdi, uning asosida uning kabineti ishonch ovozini qo'lga kiritdi. Bayonotda shunday deyilgan edi: "Livan o'zining geografik va iqtisodiy sharoitlari, mavqei, tili va madaniyati tufayli arab hukumatlari bilan hamkorlik qilishga da'vat etilgan. Hukumat ushbu hukumatlar bilan arab davlatlari tomonidan Livan mustaqilligi va uning to'la suverenitetini hurmat qilishni ta'minlaydigan asoslarda munosabatlar o'rnatish ustida ishlaydi. Livan g'arb sivilizatsiyasining ne'matlarini o'zlashtirayotgan arab mamlakatidir. Arab mamlakatlaridagi birodarlarimiz Livanga uning mag'rur vatanparvar farzandlari tilaganidek yaxshiliklar tilaydilar. Biz Livanni imperializm bazasi sifatida ko'rishni istamaymiz, ular ham uni imperializm uchun tramplin deb ko'rishni xohlamaydilar. Binobarin, ular ham, biz ham aziz vatanimizni mustaqil, suveren va ozod ko'rishni istaymiz".¹¹

1943-yil kuz oyida Livan mustaqilligi sharoitida ayollarning saylov huquqi talablari dolzarb masalaga aylandi. Dastlab, asosan o'rta sinf vakillari bo'lgan ayol faollar o'z talablarini mustaqil davlat qurish, fuqarolik huquqlari va demokratik tamoyillarni himoya qilish doirasida ilgari surdilar. Livanlik ayollar saylov huquqini qo'lga kiritgach, parlament saylovlarida qatnashgan birinchi ayol Emili Fares Ibrohim bo'ldi. Yozuvchi va faol sifatida u 1940-yillarda so'l yo'nalishdagi doiralarda faollik ko'rsatdi va ayollar huquqlarining qat'iy tarafdori edi. U ayollar huquqlarining yo'qligida Livan demokratiyasining haqiqatdan yiroq ekanligini tanqid qilardi. Uning "Al-Tariq" jurnalida chop etilgan maqolalaridan birida Fares Ibrohim quyidagicha savol bilan chiqdi: "O'z mamlakatlarida asosiy siyosiy huquqlardan mahrum bo'lgan ayollar bor ekan, ularga [erkaklarga] to'liq demokratik boshqaruvni amalga oshirish huquqini kim berdi?"

Uning fikricha, Livan faqat jamoat sohasida erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik orqali to'liq va insonparvar demokratiyaga erisha oladi. So'l yo'nalishdagi livanlik ayollar sinf va gender masalalarini birlashtirib, ayollar huquqlarini tenglik

¹¹ Амин Саид. Восстания арабов в XX веке. Прогресс. Мосва-1964. -С.158.

uchun kengroq ijtimoiy kurashning tarkibiy qismi sifatida muhokama qildilar. Ularning talablari, respublikachilik va demokratik boshqaruv tamoyillarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, amaldagi tizimdagi zaifliklarni ham fosh qilishga qaratilgan edi. Fares Ibrohim kabi faollar o'z maqolalari va chiqishlari orqali so'l yo'nalishdagi erkaklar va liberal millatchi guruhlar ilgari surgan tizimning kamchiliklarini tanqid qilishda davom etdilar.¹²

Mustaqil Livanning yaratilishi katta maroniylar va sunniy oilalar o'rtasidagi "Milliy pakt" deb nomlangan yozilmagan kelishuvga asoslangan bo'lib, unda Livan davlatchiligi uchun asosiy ikkita shart mavjud edi.

Birinchidan, nasroniylar Fransiya homiyligidan voz kechib, musulmonlarning arab birligi g'oyalaridan voz kechishi va birinchi navbatda Livanning Suriyaga kirishi evaziga mamlakat mustaqilligini qo'llab-quvvatladilar.

Ikkinchidan, Milliy pakt konfessionalizmni saqlab qolishni nazarda tutgan. Livan siyosiy konfessionalizmining eng muhim jihatlari orasida bu zarur edi. Maroniylarga prezidentlik, sunniylarga bosh vazirlik, shialarga parlament raisi tayinlandi. Davlat xizmati va armiyadagi vazirlik lavozimlari va boshqa rahbarlik lavozimlari shunga muvofiq taqsimlandi. Parlamentdagi nasroniylar va musulmonlar o'rtasidagi nisbat 6:5 sifatida qayd etildi. O'sha paytda Livanda 20 ga yaqin diniy jamoalar mavjud bo'lib, ulardan atigi 17 tasi rasmiy davlat maqomini olgan: 13 ta xristian (maroniylar, yunon katoliklari, pravoslavlar, arman katoliklari, arman pravoslavlar, protestantlar va boshqalar), uchta musulmon (sunnilar, shialar va druzlar) va yahudiylar jamoasi. Jamoalarga oila, nikoh va meros munosabatlarini tartibga solishda mustaqillik berildi. Livanda shu kungacha fuqarolik nikohi mavjud emas. Demografik vaziyatning musulmonlar foydasiga bosqichma-bosqich o'zgarishi musulmon elitalarining siyosiy tizimdagi vakolatlarni qayta taqsimlash talablarining keskinlashishiga olib keldi.¹³

1943-yil oxiridan boshlab Livan nisbatan tinch davrga kirdi. Fransuz generali J.Katru 23-noyabr kuni Livan radiosi orqali prezident va bosh vazir huquqlarining tiklanishi haqida bayonot berib, bu voqea "Fransiya va Livanni asrlar davomida bog'lab turgan an'anaviy va samarali munosabatlar tiklanganini" hamda "qayg'uli inqiroz tugaganini" anglatishini ta'kidladi. Shu bilan birga, ingliz va fransuz qo'shinlari hali ham mamlakatda bo'lishiga qaramay, Livan o'z suverenitetini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu Livan hukumatiga xalqaro maydonda o'zini namoyon qilish imkonini berdi. Xususan, 1944-yilda Arab davlatlari ligasini tashkil etishga tayyorgarlik ko'rishda faol ishtirok etdi.

Ichki siyosatda prezident Bishara al-Xuriy boshchiligidagi Konstitutsiyaviy blok yetakchilikni qo'lga oldi. Bu blok "kiyan lubnaniy" (Livanning mavjudligi)

¹² <https://english.legal-agenda.com/founding-the-lebanese-left-from-colonial-rule-to-independence/>

¹³ Мохов Н. Непреодолимый конфессионализм Ливана // Азия и Африка сегодня. – 2008. – №. 6. – С. 26.

tushunchasini tan olishni va Milliy paktning barcha bandlariga qat'iy rioya qilishni talab qildi. Blokning asosini al-Xuriy atrofida to'plangan 36 nafar deputat tashkil etdi, ulardan 26 nafari nasroniylar edi. Ushbu deputatlar mamlakatning 230 ta yirik kompaniyasining sobiq egalari yoki hammualliflari bo'lib, Konstitutsiyaviy blok mamlakatning burjua elitesini ifodalovchi sinfiy blok sifatida namoyon bo'ldi.

Konstitutsiyaviy blokka qarshi turuvchi Milliy blok esa ekstremistik pozitsiyalarni himoya qildi. 1944-yil avgust oyida SSSRning Misrdagi elchisi N.V. Novikov vositachiligida Livan va Sovet Ittifoqi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Livan hukumati Sovet Ittifoqining mustaqillikni tan olishini va uning suverenitetini mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidladi.

Xalqaro maydonda Livan va Suriya o'z mavqelarini mustahkamlashga intilishdi. 1945-yil aprelda ular BMT Deklaratsiyasini imzolashdi va Arab davlatlari ligasining a'zolari bo'lishdi. Ushbu pakt arab mamlakatlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va ularning suverenitetini himoya qilishni maqsad qilgan edi. 1945-yil may oyida Ikkinchi jahon urushining yakunlanishi Fransiya va Angliyani Levant mamlakatlaridan qo'shinlarini olib chiqishga majbur qildi. Shu tariqa, Livan va Suriya mustaqilliklarini yanada mustahkamlash yo'lida muhim qadamlar tashladilar.¹⁴

Xulosa

Livan davlatining Fransiya mustamlakachiligiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari (1919-1943) XX-asr boshidagi xalqaro siyosiy vaziyat, mintaqadagi geosiyosiy holat va mahalliy aholining milliy o'zligini tiklashga bo'lgan intilishlari bilan chambarchas bog'liq edi. Bu harakat nafaqat Livan xalqining mustaqillik uchun kurashini, balki butun arab dunyosidagi milliy ozodlik g'oyalarining rivojlanishini ham aks ettiradi. Birinchi jahon urushi yakunida, 1919-yilda Livan hududi Fransiya mandati ostiga tushdi. Bu mandat 1920-yilda Millatlar Ligasi tomonidan rasmiylashtirildi. Livan xalqi bu qarorni o'z mustaqilligiga to'siq deb qabul qildi va milliy-ozodlik harakatlarini faollashtirdi.

Ushbu davrda Livan xalqining asosiy maqsadi mustaqil davlat qurish va Fransiya hukmronligidan qutulish edi. Milliy-ozodlik harakatlari ko'p qirrali bo'lib, u siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida olib borildi. 1925- yillardagi Buyuk Suriya qo'zg'oloni Livan milliy-ozodlik harakatining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, mamlakat xalqining mustamlakachilikka qarshi birdamlikda kurash olib borganini ko'rsatdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1939-1945) global siyosiy vaziyat Livan xalqining ozodlikka erishish imkoniyatlarini yanada kuchaytirdi. 1943-yilda Livan hukumati Fransiya mandatidan chiqish va to'liq mustaqillikka erishish yo'lida muhim qadam tashladi. Shu yili Livan mustaqillik e'lon qildi va mamlakat prezidenti Bishara al-Xuriy boshchiligida yangi davlat tashkil qilindi. Fransiya mandati davrida Livan

¹⁴ Ланда Р. Г. История Ливана. XX век / Институт востоковедения РАН/. - М.: ИВ РАН, 2016. -С.87.

jamiyatida chuqur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Maroniy xristianlar va musulmonlar o'rtasidagi munosabatlar, siyosiy elitaning shakllanishi, milliy ong va vatanparvarlik tuyg'ularining o'sishi kabi jarayonlar kuzatildi. Milliy-ozodlik harakati turli ijtimoiy qatlamlar va diniy guruhlarini birlashtirgan holda, yagona maqsad - mustaqillikka erishish yo'lida harakat qildi. 1926-yilgi Konstitutsiyaning qabul qilinishi, ayniqsa, 1943-yilgi "Milliy Pakt" Livanning ko'p konfessiyali davlat sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

1919-1943-yillardagi Livan milliy-ozodlik harakati mahalliy xalqning mustamlakachilikka qarshi kurashdagi jasorati va o'zini-o'zi boshqarishga bo'lgan intilishlarini aks ettiradi. Ushbu harakat natijasida Livan xalqining milliy o'zligi tiklanib, mustaqil davlatga asos solindi. Bu davr mintaqadagi boshqa millatlarning ham o'z ozodligi uchun kurashishiga ilhom bo'ldi va arab dunyosida mustamlakachilikka qarshi harakatlarning kuchayishiga xizmat qildi. Bu harakat nafaqat mustaqillikka erishish, balki zamonaviy ko'p konfessiyali demokratik davlat qurilishi uchun ham poydevor yaratdi. Bugungi kunda ham bu tarixiy tajriba Livan davlati va jamiyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ватוליной Л. Арабы в борьбе за независимость. Академия наук СССР Институт Востоковедения. Москва, 2020.
2. الإيطالية. ريمو سان مدينة. في عقدت اتفاقيه. هي. ريمو سان مؤتمر سانريمو مؤتمر. University of Anbar. نسيان من. عشر التاسع في
3. Амин Саид. Восстания арабов в XX веке. Прогресс. Мосва-1964.-С.351.
4. Бершов В. Н. Сирийское восстание 1925-1927 годов на подмандатных территориях (Сирия и Ливан): причины, ход и последствия // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Исторические науки. – 2019. – Т. 5. – №. 1. – С. 43-51.
5. Хайруллин Т. Р. Конституция Ливана как гарант хрупкой стабильности политического режима // Ислам в современном мире. – 2018. – Т. 13. – №. 4. – С. 113-122.
6. Мохов Н. Непреодолимый конфессионализм Ливана // Азия и Африка сегодня. – 2008. – №. 6. – С. 25-31.
7. <https://english.legal-agenda.com/founding-the-lebanese-left-from-colonial-rule-to-independence/>
8. Роган Ю. Арабы. XVI-XXI вв./М.: -2022. Альпина.-С.769.
9. <https://www.fao.org/faolex/results/details/en/c/LEX-FAOC128652/>
10. Ланда Р. Г. История Ливана. XX век / Институт востоковедения РАН/. - М.: ИВ РАН, 2016.